O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

Avtoyo‘l ko‘priklari uchun oldindan zo‘riqtirilgan temirbeton g‘ovakli plitalar Texnik shartlar

Rasmiy nashr

O‘zbekiston standartlar instituti

Toshkent

STANDARTLAR INSTITUTI #9VJ4G4MBAD - 03.02.2026 "TURON STANDART SERTIFIKAT" MCHJ

So‘z boshi

1. STQ 21 “Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi” Standartlashtirish bo‘yicha texnik qo‘mitasi tomonidan **ISHLAB CHIQILDI.**

2. O‘zbekiston standartlar instituti tomonidan 2025 yil 01-dekabrdagi 122/MSt -sonli buyrug‘i bilan **TASDIQLANDI**.

3. **O‘zDSt 2838:2019** O‘RNIGA AMALGA KIRITILDI.

Ushbu milliy standartni va unga bo‘lgan o‘zgartishlarni O‘zbekiston hududida amalga kiritish, qayta ko‘rib chiqish yoki bekor qilish haqidagi axborot Standartlashtirish bo‘yicha milliy organning rasmiy veb-saytlari va standartlarning yillik axborot ko‘rsatkichlarda chop etiladi.

Ushbu standartni O‘zbekiston hududida rasmiy tarqatish mutlaq huquqi O‘zbekiston standartlar institutiga tegishli

STANDARTLAR INSTITUTI #9VJ4G4MBAD - 03.02.2026 "TURON STANDART SERTIFIKAT" MCHJ

Mundarija

1	Qo‘llanish doirasi	1
2	Standartlarga havolalar	1
3	Tasniflash	3
4	Texnik talablar	4
5	Xavfsizlik va atrof-muhitni muhofaza qilish talablari	11
6	Qabul qilish qoidalari	12
7	Nazorat usullari	14
8	Transportda tashish va saqlash	15
9	Foydalanish bo‘yicha ko‘rsatmalar	16
10	Ishlab chiqaruvchi kafolatlari	16
A ilova (ma‘lumot uchun) Plitalar tur o‘lchamlar qatori uchun asosiy ko‘rsatkichlar		17
B ilova (ma‘lumot uchun) Loyiha hujjatlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar		18
Bibliografiya		19
Bibliografik ma’lumotlar		20

STANDARTLAR INSTITUTI #9VJ4G4MBAD - 03.02.2026 "TURON STANDART SERTIFIKAT" MCHJ

O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

Avtoyo‘l ko‘priklari uchun oldindan zo‘riqtirilgan temirbeton g‘ovakli plitalar. Texnik shartlar

Плиты железобетонные пустотные предварительно-напряжённые для автодорожных мостов. Технические условия

Reinforced concrete prestressed hollow slabs for autoroads bridge. Spesifications

Amalga kiritish sanasi 01.01.2026 yil.

1 Qo‘llanish doirasi

Ushbu milliy standart avtomobil yo‘llari uchun mo‘ljallangan transport inshootlarini (ko‘priklar, yo‘l o‘tkazgichlar, estakadalar) qurishda qo‘llaniladigan temirbeton, g‘ovakli, oldindan zo‘riqtirilgan plitalarga (keyingi o‘rinlarda — plita deb yuritiladi) taalluqli bo‘lib, plitalarga qo‘yiladigan texnik talablar, xavfsizlik va atrof-muhitni muhofaza qilish talablarini, nazorat usullari, qabul qilish, tashish va saqlash qoidalarini belgilaydi.

Plitalar [1] ga muvofiq eng sovuq besh kunlik davrda tashqi havo haroratining hisobiy qishki qiymati −30 °C gacha bo‘lgan va seysmikligi 9 ballgacha bo‘lgan hududlarda qo‘llanishi lozim.

2 Standartlarga havolalar

Ushbu milliy standartda quyidagi standartlarga havolalardan foydalanildi.

EN 12350-6:2019	Testing fresh concrete - Part 6: Density (Yangi tayyorlangan betonning sinovi. 6 qism: Zichlik)
ГОСТ 12.0.004-2015	Система стандартов безопасности труда. Организация обучения безопасности труда. Общие положения
ГОСТ 12.1.005-88	Система стандартов безопасности труда. Общие санитарно-гигиенические требования к воздуху рабочей зоны
ГОСТ 12.1.019-2017	Система стандартов безопасности труда. Электробезопасность. Общие требования и номенклатура видов защиты
ГОСТ 12.1.030-81	Система стандартов безопасности труда. Электробезопасность. Защитное заземление, зануление
ГОСТ 12.2.003-91	Система стандартов безопасности труда. Оборудование производственное. Общие требования безопасности
ГОСТ 12.3.009-76	Система стандартов безопасности труда. Работы погрузочно-разгрузочные. Общие требования безопасности

Rasmiy nashr

STANDARTLAR INSTITUTI #9VJ4G4MBAD - 03.02.2026 "TURON STANDART SERTIFIKAT" MCHJ

ГОСТ Р 12.3.047-2012	Система стандартов безопасности труда. Пожарная безопасность технологических процессов. Общие требования. Методы контроля
ГОСТ 12.4.026-2015	Система стандартов безопасности труда. Цвета сигнальные, знаки безопасности и разметка сигнальная. Назначение и правила применения. Общие технические требования и характеристики. Методы испытаний
ГОСТ 17.2.3.02-2014	Правила установления допустимых выбросов загрязняющих веществ промышленными предприятиями
ГОСТ 17.4.3.05-86	Охрана природы. Почвы. Требования к сточным водам и их осадкам для орошения и удобрения
ГОСТ 162-90	Штангенглубиномеры. Технические условия
ГОСТ 166-89 (ИСО 3599-76)	Штангенциркули. Технические условия
ГОСТ 310.2-76	Цементы. Методы определения тонкости помола
ГОСТ 310.3-76	Цементы. Методы определения нормальной густоты, сроков схватывания и равномерности изменения объема
ГОСТ 310.4-81	Цементы. Методы определения предела прочности при изгибе и сжатии
ГОСТ 7502-98	Рулетки измерительные металлические. Технические условия
ГОСТ 8267-93	Щебень и гравий из плотных горных пород для строительных работ. Технические условия
ГОСТ 8269.0-97	Щебень и гравий из плотных горных пород и отходов промышленного производства для строительных работ. Методы физико-механических испытаний
ГОСТ 8735-88	Песок для строительных работ. Методы испытаний
ГОСТ 8736-2014	Песок для строительных работ. Технические условия
ГОСТ 8829-2018	Изделия строительные железобетонные и бетонные заводского изготовления. Методы испытаний нагружением. Правила оценки прочности, жесткости и трещиностойкости
ГОСТ 10060-2012	Бетоны. Методы определения морозостойкости
ГОСТ 10180-2012	Бетоны. Методы определения прочности по контрольным образцам
ГОСТ 10922-2012	Арматурные и закладные изделия, их сварные, вязаные и механические соединения для железобетонных конструкций. Общие технические условия
ГОСТ 12730.1-2020	Бетоны. Методы определения плотности
ГОСТ 12730.3-2020	Бетоны. Метод определения водопоглощения
ГОСТ 12730.5-2018	Бетоны. Методы определения водонепроницаемости
ГОСТ 13015-2012	Изделия бетонные и железобетонные для строительства. Общие технические требования. Правила приемки, маркировки, транспортирования и хранения
ГОСТ 13087-2018	Бетоны. Методы определения истираемости

STANDARTLAR INSTITUTI #9VJ4G4MBAD - 03.02.2026 "TURON STANDART SERTIFIKAT" MCHJ

ГОСТ 13840-68	Канаты стальные арматурные 1х7. Технические условия
ГОСТ 14098-2014	Соединения сварные арматуры и закладных изделий железобетонных конструкций. Типы, конструкции и размеры
ГОСТ 17624-2021	Бетоны. Ультразвуковой метод определения прочности
ГОСТ 18105-2018	Бетоны. Правила контроля и оценки прочности
ГОСТ 22362-77	Конструкции железобетонные. Методы измерения силы натяжения арматуры
ГОСТ 22690-2015	Бетоны. Определение прочности механическими методами неразрушающего контроля
ГОСТ 22904-2023	Конструкции железобетонные. Магнитный метод определения толщины защитного слоя бетона и расположения арматуры
ГОСТ 23732-2011	Вода для бетонов и строительных растворов. Технические условия
ГОСТ 24211-2008	Добавки для бетонов и строительных растворов. Общие технические условия
ГОСТ 24297-2013	Верификация закупленной продукции. Организация проведения и методы контроля
ГОСТ 26433.1-89	Система обеспечения точности геометрических параметров в строительстве. Правила выполнения измерений. Элементы заводского изготовления
ГОСТ 26633-2015	Бетоны тяжелые и мелкозернистые. Технические условия
ГОСТ 30108-94	Материалы и изделия строительные. Определение удельной эффективной активности естественных радионуклидов
ГОСТ 31108-2020	Цементы общестроительные. Технические условия
ГОСТ 31424-2010	Материалы строительные нерудные из отсевов дробления плотных горных пород при производстве щебня. Технические условия
ГОСТ 34028-2016	Прокат арматурный для железобетонных конструкций. Технические условия
O‘z DSt ISO 1920-7:2019 (ISO 1920-7:2004, IDT)	Betonni zararsiz sinov sinovidan o’tkazish - 7-qism. Qattiqlashtirilgan beton ustunidan qattiq bo’lmagan sinovlar
O‘z DSt 12.0.001:2005	Mehnat xavfsizligi, mehnatni ilmiy tashkil qilishi sanoat sanitariya va gigiyenasi, standartlari tizimi
O‘zMSt 561:2025	Po‘lat simli bog‘lash belbog‘i. Texnik shartlar
O‘z DSt 838:2023	Temir-beton mahsulotlar yasash uchun po’lat qoliplar. Texnikaviy shartlar
O‘z DSt 3025:2015	Tekis va davriy profildagi armaturali prokat texnikaviy shartlar

Ushbu milliy standartdan foydalanishda Standartlashtirish bo‘yicha milliy organning rasmiy veb-saytlari va standartlarning yillik axborot ko‘rsatkichlariga muvofiq standartlarni O‘zbekiston Respublikasi hududida amal qilinishi tekshirilishi kerak. Agar havola qilingan standart almashtirilgan (o‘zgartirilgan) bo‘lsa, unda ushbu standartdan foydalanishda almashtirilgan (o‘zgartirilgan) standartga amal qilish kerak. Agarda havola qilinayotgan standart

STANDARTLAR INSTITUTI #9VJ4G4MBAD - 03.02.2026 "TURON STANDART SERTIFIKAT" MCHJ

almashtirilmasdan bekor qilingan bo‘lsa, unga havola qilingan qoida ushbu havolaga taalluqli bo‘lmagan qismida qo‘llaniladi.

3 Tasniflash

3.1 Plitalar nomenklaturasi quyidagilarga ko‘ra turli o‘lchamdagi plitalar qatorini ifodalaydi:

- vaqtinchalik harakatlanuvchan yuklar ta‘siriga bog‘liq;

NK 100, A 14 yuk ostidagi PN turiga;

NK 80, A 11 yuk ostidagi P turiga;

- o‘lchamlar bo‘yicha uzunligi 6 m dan 18 m gacha, balandligi 30 cm dan 78 cm gacha;

- zo‘riqtiriladigan armaturalar bilan mustahkamlash;

ГОСТ 34028 yoki O‘z DSt 3025 A 600 va A 800 sinfidagi armatura po‘latidan armaturalash sxemalari bo‘yicha, bog‘lamalarni tozalash jarayoniga bog‘liq holda;

K7 po‘lat simlar bilan armaturalash.

Izoh. Plitalarning qisqacha nomlanishi konstruktorlik hujjatlariga muvofiq qabul qilingan: B ilovaga muvofiq PN va N turidagi plitalar.

3.2 Boshqa hujjatlarda va buyurtma berishda plitalarni belgilash namunalari:

Bosim ostidagi plitalar NK 80 uzunligi 6 m, A600 zo‘riqtirilgan armatura:

P 6- A600 O‘zMSt___:2025.

Bosim ostidagi plitalar NK 100 uzunligi 18 m, kengligi 99 cm, balandligi 78 cm, A600 zo‘riqtirilgan armatura (tugunlarning mexanik tozalovisisiz):

PN 18.99.78 – A600.1 O‘zMSt___:2025.

Bosim ostidagi plitalar NK 100, uzunligi 9 m, kengligi 99 cm, balandligi 48 cm, K7 zo‘riqtirilgan armaturasi po‘lat kanati:

PN 9.99.48-K7 O‘zMSt___:2025

4 Texnik talablar

4.1 Avtomobil yo‘llari ko‘priklari uchun mo‘ljallangan teshikli, oldindan zo‘riqtirilgan temir-beton plitalar mazkur standart, ГОСТ 13015, [2] hamda texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi me‘yoriy hujjatlarga va ishchi chizmalarga muvofiq bo‘lishi kerak.

Izoh konstruktorlik hujjatlari haqidagi ma‘lumotlar B ilovada keltirilgan.

Plitalar belgilangan tartibda tasdiqlangan texnologik hujjatlarga asosan ishlab chiqarilishi lozim.

4.2 Plitalar O‘z DSt 838 ga muvofiq po‘lat qoliplarda tayyorlanishi kerak.

4.3 Armatura prokatlariga talablar, ГОСТ 34028, ГОСТ 13840 va O‘z DSt 3025 talablariga muvofiq belgilanadi.

4.4 Betonning bo‘shatish mustahkamligi va loyihaviy yoshdagi mustahkamligini nazorat qilish ГОСТ 18105 bo‘yicha va ishchi tarkibdagi beton qorishmasidan tayyorlangan nazorat namunalar seriyasi asosida ГОСТ 10180 talablari bo‘yicha amalga oshirilishi lozim.

4.5 Plitalardagi betonning bo‘shatish (chiqarish) mustahkamligi nazorati ГОСТ 17624 talablariga muvofiq ultratovushli uskunalar bilan yoki ГОСТ 22690 va O‘z DSt ISO 1920-7 talablariga muvofiq mexanik uskunalar bilan buzilmas usulda, yoxud ushbu standartning 7.2-bandiga muvofiq nazorat namunalari asosida amalga oshirilishi lozim.

STANDARTLAR INSTITUTI #9VJ4G4MBAD - 03.02.2026 "TURON STANDART SERTIFIKAT" MCHJ

4.6 Armatura, joylashtiriladigan elementlar va stropovka ilgaklarini nazorat qilish ГОСТ 10922 bo‘yicha amalga oshirilishi lozim.

4.7 Armaturadagi kuchlar beton orqali qabul qilingandan so‘ng, plitaning egilishi (elastik ko‘tarilishi)ni nazorat qilish ГОСТ 26433.1 ga muvofiq va nivellirlar yordamida amalga oshirilishi lozim.

4.8 Armatura tortilish kuchini nazorat qilish ГОСТ 22362 bo‘yicha amalga oshirilishi lozim.

4.9 Yorilishlarning ochilish kengligini nazorat qilish ГОСТ 26433.1 ga muvofiq, aniqligi 0,05 mm bo‘lgan mikroskop yordamida amalga oshirilishi lozim.

4.10 Tabiiy radionuklidlarning solishtirma samarali faolligi (A_{sam}) nazorati sanitariya-epidemiologik xulosalar yoki xom ashyo materiallariga berilgan moslik sertifikati ma‘lumotlariga asoslanib, ГОСТ 30108 va [4] talablariga muvofiq amalga oshirilishi lozim.

4.11 Betonning himoya qatlami qalinligini va armatura joylashuvini nazorat qilish ГОСТ 22904 talablariga muvofiq amalga oshirilishi lozim.

4.12 Plitalarning mustahkamligi, qattiqligi va yoriqlarga chidamliligini sinash va baholash ГОСТ 8829 bo‘yicha, konstruktorlik hujjatlarida ko‘rsatilgan sinov sxemalariga muvofiq nazorat yuklamalari hajmida yuklash yo‘li bilan amalga oshirilishi lozim.

4.13 Plitalarning geometrik parametrlarini, sirtlar profilining to‘g‘riligini, zo‘riqtirilgan armatura cho‘zilish miqdorini, o‘rnatiladigan detallar va ilgak halqalarining joylashuvini, sifati va o‘rnatiladigan detallarini nazorat qilish ГОСТ 26433.1 bo‘yicha o‘lchov ishlarini bajarish qoidalariga muvofiq amalga oshirilishi lozim. O‘lchov vositalari sifatida quyidagilar qo‘llaniladi:

po‘lat chizgichlar – texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi me‘yoriy hujjatlar bo‘yicha,

chuqurlik o‘lchagichlar (shtangenglyubinomer) – ГОСТ 162 talablari bo‘yicha,

shtangensirkul – ГОСТ 166 talablari bo‘yicha.

metall ruletkalar – ГОСТ 7502 talablari bo‘yicha.

4.14 Yorilishlarning ochilish kengligini nazorat qilish ГОСТ 26433.1 ga muvofiq amalga oshirilishi lozim.

4.15 Betonning uzatish mustahkamligini nazorat qilish ГОСТ 18105 ga muvofiq amalga oshirilishi lozim.


4.16 Beton plitalarning siqilishga bo‘lgan mustahkamligini nazorat qilish ГОСТ 18105 ga muvofiq amalga oshirilishi lozim.

4.2 Asosiy parametrlar va (yoki) tavsiflar (xususiyatlar)

4.2.1 Umumiy ko‘rinishi va tur o‘lchamlar qatoriga kiruvchi plitalarning asosiy geometrik o‘lchamlari 1, 2, 3-rasmlarda ko‘rsatilgan.

Vaqtinchalik harakatlanuvchi yuklamalar qiymatlari 1-jadvalda keltirilgan.

Plitalarning umumiy ko‘rinishi



STANDARTLAR INSTITUTI #9VJ4G4MBAD - 03.02.2026 "TURON STANDART SERTIFIKAT" MCHJ

1-rasm — P 6-A600 2-rasm — PN 9.99.48-K47 3-rasm — PN 18.99.78-A IV.1

Izoh: Barcha o‘lchamlar millimetrlarda (mm).

1-jadval

Plita turi	Plita markasi	Vaqtinchalik harakatlanuvchi yuk qiymati	Rasm	Izoh
P	P 6-A600	NK 80, A11	1	-
PN	PN 9.99.48-K7	NK 100, A14	2	-
	PN 18.99.78-A 600.1		3	Ulanma joylarini mexanik tozalashsiz

4.2.2 Tur o‘lchamlar qatorining bitta vakiliga oid asosiy ko‘rsatkichlar A-ilovada keltirilgan.

4.2.3 PN va P turidagi plitalarni konstruktiv hujjatlarda keltirilgandan farq qiluvchi geometrik o‘lchamlar bilan, belgilangan tartibda tasdiqlangan buyurtmachining chizmalariga muvofiq, ushbu standartda belgilangan sifat talablariga rioya qilingan holda tayyorlashga ruxsat etiladi.

4.2.4 Armatura zo‘riqishi qolip tirgaklaridan betonga o‘tkazilgandan so‘ng, plitada egilish (elastik ko‘tarilish) yuzaga kelishi lozim. Har bir plita markasining egilish miqdori konstruktiv hujjatlarda ko‘rsatilgan.

4.2.5 Betonning armaturagacha bo‘lgan himoya qatlami miqdori konstruktorlik hujjatlarda ko‘rsatilgan va 20 mm dan kam bo‘lmasligi kerak.

4.2.6 Plitalar mustahkamlik, qattiqlik va yoriqlarga chidamlilik bo‘yicha sinov jarayonida konstruktorlik hujjatlardagi sxemalar asosida nazorat yuklamalariga bardosh berishi kerak.

4.3 Betonga bo‘lgan talablar

4.3.1 Plitalar ГОСТ 26633 bo‘yicha og‘ir betondan tayyorlanishi kerak. Betonning zichligi D 2300 kg/m3 dan D 2500 kg/m3 gacha bo‘lishi kerak.

4.3.2 Betonning siqilishga mustahkamligi bo‘yicha sinfi B30.

4.3.3 Plitalarning sovuqqa chidamlilik bo‘yicha beton markasi foydalanish hududining aniq iqlim sharoitlari hisobga olinib, plita buyurtmasida ko‘rsatilishi kerak.

Agar buyurtmada sovuqqa chidamlilik bo‘yicha ma‘lumot berilmagan bo‘lsa, sovuqqa chidamlilik markasi sifatida F200 qabul qilinadi.

4.3.4 Betonning ishqalanish bo‘yicha markasi G 1- (0,7 g/cm2 dan ko‘p emas).

4.3.5 Plitalarning suv o‘tkazuvchanlik darajasi bo‘yicha beton markasi plita buyurtmasida ko‘rsatilishi kerak.

Agar buyurtmada suv o‘tkazuvchanlik bo‘yicha ma‘lumot berilmagan bo‘lsa, suv o‘tkazuvchanlik markasi sifatida W6 qabul qilinadi.

4.3.6 Betonning o‘tkazuvchi mustahkamlik qiymati loyihaviy yoshdagi beton mustahkamligining kamida 80% ni tashkil etishi kerak.

4.3.7 Plitalar betonining me‘yorlashtirilgan bo‘shatish mustahkamligi qiymati loyihaviy yoshdagi beton mustahkamligiga nisbatan foizlarda kamida quyidagicha bo‘lishi kerak:

- yilning issiq davrida kamida 80%
- yilning sovuq davrida kamida 90%

STANDARTLAR INSTITUTI "BINOKOR" DAVLAT TADQIQOT VA STANDART SERTIFIKAT" MCHJ

Beton 28 kunlik yoshdagi mustahkamlikka erishish sharti bilan.

Sovuq yil fasli sifatida tashqi havoning o‘rtacha oylik harorati 0°C va undan past bo‘lgan davr, issiq yil fasli esa qolgan barcha vaqt hisoblanadi.

4.4 Xom ashyo va materiallarga qo‘yiladigan talablar

4.4.1 Plitalarni ishlab chiqarishda quyidagi xom ashyo materiallari qo‘llanilishi kerak:

- ГОСТ 31108 bo‘yicha 42,5H, 52,5H sinfli SEM (ЦЕМ) 0, SEM (ЦЕМ) I, SEM (ЦЕМ) II/A-Ш turdagi portlandsement, siqilishga mustahkamligi 50 MPa, [3] talablariga muvofiq betonning B30 sinfiga mos keladi;

- ГОСТ 22266 bo‘yicha 42,5 H, 52,5H sinfidagi SEM (ЦЕМ) I СС, SEM (ЦЕМ) II/ A-Ш СС turidagi sulfatga chidamli portlandsement, siqilishdagi mustahkamligi 50 MPa, [3] talablarga muvofiq betonning B30 sinfiga mos keladi.

- ГОСТ 8267 bo‘yicha qurilish ishlari uchun zich tog‘ jinslaridan olingan shag‘al, to‘ldiruvchi zarrachalarining o‘lchami 20 mm dan oshmasligi kerak;

- ГОСТ 8736 bo‘yicha qurilish ishlari uchun qum, ГОСТ 31424 bo‘yicha shag‘al ishlab chiqarishda zich tog‘ jinslarining maydalangan chiqindilaridan olingan qum va ГОСТ 8736 bo‘yicha tabiiy qum va massa bo‘yicha 20% dan kam bo‘lmagan ГОСТ 31424 bo‘yicha maydalangan qum aralashmasi, qum aralashmalari ГОСТ 8736 talablariga javob berishi kerak;

- temir-beton konstruksiyalarni armaturalash uchun ГОСТ 34028 ga muvofiq 18 mm diametrli A600 va A800 sinfdagi issiq yoyilgan po‘lat;

- zo‘riqtiriladigan armatura sifatida ГОСТ 13840 ga muvofiq 1x7 Ø15 mm diametrli po‘lat kanat armaturalari;

- ГОСТ 34028 yoki O‘z DSt 3025 bo‘yicha sinfidagi silliq va davriy profilning issiq yoyilgan armatura sterjenli po‘lati;

4.4.2 Montaj ilmoqlari ГОСТ 34028 yoki O‘z DSt 3025 bo‘yicha silliq profilning issiq yoyilgan armatura sterjenli po‘latidan ishlab chiqarilishi kerak.

4.4.3 Plitalar beton qorishmasini tayyorlash uchun to‘ldiruvchi va bog‘lovchi materiallar ГОСТ 26633 talablariga javob berishi kerak.

4.4.4 Beton qorishmasini tayyorlashda ГОСТ 23732 ga muvofiq beton va qurilish eritmalarini tayyorlash uchun mo‘ljallangan suvdan foydalanish kerak.

4.4.5 Beton uchun plastifikatorlar, havo kirituvchi va kompleks qo‘shimchalar ГОСТ 24211 talablariga javob berishi kerak.

Beton qorishmasiga kiritiladigan qo‘shimchalarning turlari va hajmi qo‘shimchalar uchun me’yoriy hujjatlar talablariga javob berishi kerak.

4.4.6 Sement, shag‘al, qum, po‘lat kanatlar va armatura prokatlari plitalarni ishlab chiqarishdan oldin ГОСТ 24297 ga muvofiq kirish nazorati (verifikatsiya)dan o‘tishi kerak.

4.4.7 Plitalar ishlab chiqarishda foydalaniladigan xom ashyo materiallarning tabiiy radionuklidlarining solishtirma samarali faolligi (A_{sam}) ГОСТ 30108 va [4] talablariga javob berishi kerak:

Aholi punktlari va istiqbolli qurilish zonalari uchun 370 dan 740 Bq/kg gacha;

Aholi punktlaridan tashqaridagi hududlar uchun 740 dan 1500 Bq/kg gacha.

4.4.8 Armatura po‘lati prokatining gamma-nurlanishi ekvivalent dozasining maksimal quvvati [13] da ko‘rsatilgan qiymatlardan oshmasligi kerak.

STANDARTLAR INSTITUTI #9VJ4G4MBAD - 03.02.2026 "TURON STANDART SERTIFIKAT" MCHJ

4.4.9 Ishlatiladigan xom ashyo materiallarining verifikatsiyasi (kirish sifat nazorati) quyidagicha amalga oshirilishi lozim:

portlandsement, sulfatga chidamli sement ГОСТ 310.2, ГОСТ 310.3, ГОСТ 310.4 bo‘yicha;

zich tog‘ jinslaridan maydalangan shag‘al ГОСТ 8269.0 bo‘yicha;

qurilish ishlari uchun qum ГОСТ 8735, ГОСТ 31424 bo‘yicha;

armatura prokatlari ГОСТ 34028, O‘z DSt 3025 va ГОСТ 13840 bo‘yicha.

4.4.10 Armatura, joylashtiriladigan elementlar va stroplovka ilgaklarini nazorat qilish ГОСТ 10922 bo‘yicha amalga oshirilishi lozim.

4.5 Armatura va o‘rnatiladigan buyumlar, stropovka ilgaklarga qo‘yiladigan talablar

4.5.1 Armatura va o‘rnatiladigan buyumlar, stropovka ilgaklarning konstruksiyasi hamda ularning plitalardagi joylashuvi konstruktorlik hujjatlariga muvofiq bo‘lishi kerak.

4.5.2 O‘rnatiladigan buyumlarining markalari, muayyan transport inshooti loyihasiga muvofiq tarzda, plitalarga buyurtma berishda ko‘rsatilishi kerak.

4.5.3 Har bir plita tur o‘lchami uchun zo‘riqtiriladigan armaturadagi nazorat qilinadigan kuch miqdori konstruktorlik hujjatlariga muvofiq bo‘lishi kerak.

4.5.4 Sterjenli zo‘riqtiriladigan armaturaning ulangan joylarini birlashtirib payvandlash ГОСТ 14098 talablari asosida amalga oshirilishi kerak.

4.5.5 Birlashtirilgan sterjenli zo‘riqtiriladigan armaturani joylashtirishda quyidagi shartlarga rioya qilinish lozim:

- har qanday kesimda, 500 mm uzunlikdagi maydon doirasida birlashtirishlar soni umumiy birlashtirishlar sonining 40% dan oshmasligi lozim;

- plitaning o‘rtacha uchdan bir qismida birlashishlarga yo‘l qo‘yilmaydi.

4.5.6 Armatura va o‘rnatiladigan buyumlar ГОСТ 14098 talablari bo‘yicha kontakt payvandlash usulida yoki O‘zMSt 561 bo‘yicha umumiy maqsadli sim yordamida bog‘lash usulida tayyorlanishi kerak.

4.5.7 Taranglanadigan armatura parametrlarining haqiqiy chetlashish qiymatlari 2-jadvalda ko‘rsatilgan maksimal ruxsat etilgan chegaralardan oshmasligi kerak.

2-Jadval millimetrlarda

Geometrik parametr chetlashishning turi	Geometrik parametr nomi	Maksimal ruxsat etilgan chetlashish qiymati
Taranglanadigan armatura elementlari orasidagi chetlashish	Elementlar orasidagi ochiq (yoritilgan) masofa: - 60 mm gacha - 60 mm dan ortiq	± 5 ± 10
Taranglanadigan elementning cho‘zilish miqdoridagi chetlashish	Nazorat qilinadigan kuch ta‘sirida yuzaga keladigan cho‘zilish	± 15%
Taranglanadigan armaturadagi tortish kuchi miqdorining chetlashish	Taranglanadigan elementlardagi tortish kuchi miqdori: alohida sterjenlar yoki kanatlarda navbatma-navbat taranglashda;	± 5% ± 10% ± 5%

STANDARTLAR INSTITUTI #9VJ4G4MBAD - 03.02.2026 "TURON STANDART SERTIFIKAT" MCHJ

	guruhli tarzda taranglashda; umumiy (yakuniy) tortish kuchi.	

4.5.8 2-jadvalda ko‘rsatilganlardan ortiqcha chetlashishga ega bo‘lgan sterjenlar va kanatlar qayta taranglanishi yoki almashtirilishi kerak.

4.5.9 Armatura va o‘rnatma buyumlarning geometrik parametrlarining haqiqiy chetlashish qiymatlari 3-jadvalda ko‘rsatilgan maksimal ruxsat etilgan chegaralardan oshmasligi kerak.

3-jadval

Geometrik parametrning chetlashish turi	Geometrik parametr nomlanishi	Chegaraviy chetlashish qiymati
Armatura buyumlari (to‘rlar, karkaslar)		
Chiziqli o‘lchamlardan chetlashish	Uzunlik Kenglik: 1500 gacha 1500 dan yuqori Balandlik: 100 gacha 100 dan 250 gacha 250 dan 400 gacha Ishchi sterjenlar orasidagi masofa: 100 gacha, o‘z ichiga olib 100 dan yuqori Taqsimlovchi sterjenlar orasidagi masofa	± 5; (-10) ± 5 ± 7; (-10) ± 3; (-5) ± 5 ± 5; (-7) ± 5 ± 10 ± 25
O‘rnatma buyumlar		
Chiziqli o‘lchamdan chetlashish	Uzunligi Kengligi Plastinaning qalinligi	± 10 ± 10 ± 2; (-1)
Tekislikdan chetlashish	O‘rnatiladigan buyumlardagi plastinalarning tekisligi: Qo‘llab-quvvatlovchi qismlarni payvandlash uchun Boshqa barcha o‘rnatish buyumlar uchun	 0.3dan kop emas, 1.5dan kop emas
Ankerlarning holatidan chetlashish	Ankerlarning holati Rejada (plan bo‘yicha) Anker sterjenlarining uzunlik bo‘yicha o‘lchamlari	 ± 10 ± 10

4.6 Ishlab chiqarish aniqligiga qo‘yiladigan talablar

4.6.1 Plitalarning geometrik parametrlarining haqiqiy chetlashish qiymatlari 4-jadvalda ko‘rsatilgan chegaraviy qiymatlardan oshmasligi kerak.

4-jadval

STANDARTLAR INSTITUTI #9VJ4G4MBAD - 03.02.2026 "TURON STANDART SERTIFIKAT" MCHJ

Geometrik parametrning chetlashish turi	Geometrik parametr nomi	Chegaraviy chetlashish qiymati
Chiziqli o‘lchamdan chetlashish	Uzunligi Qalinligi Balandligi Teshiklar o‘lchamlari	± 20, (-10) ± 10 ± 10, (-5) ± 5
Chiziqli o‘lchamdan chetlashish	Montaj halqasining siljishi: Uzoq o‘q bo‘yicha Uzoq o‘qqa perpendikulyar Montaj belgisi joylashuvi — “tayanch joyi” Betonning himoya qatlami qalinligi	 0, (-20) ± 10 ± 5
To‘g‘rilikdan chetlashish	Plitaning yon qirralarining to‘g‘riligi, quyidagilardan oshmasligi kerak: 1000 uzunlikdagi bo‘lakda 9000 gacha bo‘lgan butun uzunlikda 9000 dan 18000 gacha	 2 10 18
Plitaning egilishidagi chetlashish (elastik ko‘tarilish)	Plitaning egilishi: - P9, P12, PN 9.99.48, PN 12.99.63; - P15, P18, PN 15.99.63, PN 18.99.78	 ± 3 ± 5

4.7 Tashqi ko‘rinish va yiza sifatiga qo‘yiladigan talablar

4.7.1 Chuqurchalar, chig‘anoqlar, cho‘kindilar, siniqlar o‘lchamlari 5-jadvalda ko‘rsatilgan ruxsat etilgan qiymatlardan oshmasligi kerak.

5-jadval

Yuza	Yo‘l qo‘yiladigan qiymatlar				
	Chig‘anoqlar		Mahalliy oqimlar (balandligi) va cho‘kindilar (chuqurligi)	Beton siniqlari	
	Diametr	Chuqurlik		Chuqurlik	1 metr qirrada umumiy uzunlik
Yuzaki (pastki va yon)	6	3	3	5	50
Old tomonga tegishli bo‘lmagan (qolganlari)	15	5	5	10	100

4.7.2 Plitalar yuzasida yoriqlar bo‘lishiga yo‘l qo‘yilmaydi, eni 0,1 mm dan, uzunligi 150 mm dan oshmaydigan cho‘kish yoriqlari bundan mustasno.

4.7.3 Plitalardagi armaturaning ochilib qolishiga yo‘l qo‘yilmaydi, zo‘riqtirilgan armaturaning uchlari bundan mustasno.

STANDARTLAR INSTITUTI #9VJ4G4MBAD - 03.02.2026 "TURON STANDART SERTIFIKAT" MCHJ

Zo‘riqtirilgan armaturaning uchlari beton tanasidan plitalarning yon yuzalaridan 3 mm dan ortiq chiqib turmasligi kerak. Plitalarning chetlarini sement qumli aralashmasi bilan tekislash kerak.

4.7.4 Stropovka ilmoqlari va o‘rnatma buyumlar beton oqimidan tozalangan bo‘lishi kerak.

4.7.5 Plitalarning yuza qismida yog‘ va zang dog‘lari bo‘lishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

4.8 Tamg‘alash

4.8.1 Plitalarning tamg‘alash ushbu standart va ГОСТ 13015 talablariga muvofiq amalga oshirilishi lozim.

4.8.2 Har bir plita ustiga quyidagi tamg‘alash yozuvlari tushirilishi kerak:

- plitaning markasi va uning raqami;
- ishlab chiqaruvchi korxonaning nomi yoki savdo belgisi (agar mavjud bo‘lsa);
- texnik nazorat shtampi;
- ishlab chiqarilgan sana (kun, oy, yil);
- plitaning massasining qiymati, t;
- montaj belgisi “tayanch joyi”;
- ishlab chiqarilgan sana;
- kafolatli saqlash muddati.

Plita ustidagi tamg‘alash yozuvlarida ushbu standartning belgilanishi tushirilmasligiga yo‘l qo‘yiladi.

4.8.3 Tamg‘alash yozuvlari har bir plitaning yon qirrasiga, oxirgi qismga yaqin, quyidagi usullarning biri bilan tushirilishi kerak:

- trafaret bo‘ylab bo‘yash;
- shtamp yordamida bo‘yash;
- tamg‘alash mashinasi bilan;
- plitalar qoliplash jarayonida shtamplash.

Issiqlik ishlov berishdan keyin sovimagan plita yuzasiga qo‘l bilan bo‘yoq yoki maxsus qalam yordamida tamg‘alash yozuvlarini tushirishga ruxsat etiladi.

5 Xavfsizlik va atrof-muhitni muhofaza qilish talablari

5.1 Plitalar toksik emas, yong‘in va portlashga xavfisiz, ishlab chiqarish, saqlash, transportda tashish va saqlash jarayonlarida xavf tug‘dirmaydi.

5.2 Plitalarni ishlab chiqarishda O‘z DSt 12.0.001 bo‘yicha umumiy xavfsizlik qoidalariga rioya qilish lozim.

5.3 Plitalarni ishlab chiqarishda ishlaydiganlar ishga qabul qilinishidan oldin va davriy tibbiy ko‘rikdan o‘tishlari kerak, hamda, ГОСТ 12.0.004 ga muvofiq xavfsizlik bo‘yicha instruktaj va ish joyida o‘qitilishi kerak.

5.4 Plita ishlab chiqarish bilan band bo‘lgan shaxslar amaldagi me‘yoriy hujjatlarga muvofiq shaxsiy himoya vositalari bilan ta‘minlangan bo‘lishi kerak.

5.5 Plita ishlab chiqarishda elektr xavfsizligi ГОСТ 12.1.019 va ГОСТ 12.1.030 talablariga muvofiq bo‘lishi kerak.

5.6 Ish joyida ruxsat etilgan tebranish va shovqin darajasi [5] va [6] da belgilangan qiymatlardan oshmasligi kerak.

5.7 Ortish–tushirish ishlari ГОСТ 12.3.009 talablariga muvofiq amalga oshiriladi.

STANDARTLAR INSTITUTI #9 MIRZO ULUG‘BEK TUMANI, TOSHKENT SHAHRI, O‘ZBEKISTON

5.8 Ishlab chiqarish uskunalari ГОСТ 12.2.003 talablariga javob berishi lozim.

5.9 Xavfsizlikni ta‘minlash, insonlarning hayoti va sog‘ligini saqlash hamda ishlab chiqarish korxonalari va ma‘muriy-maishiy obyektlarda moddiy zararlarni kamaytirish maqsadida ГОСТ 12.4.026 ga muvofiq xavfsizlik belgilaridan, signal belgilaridan va signal ranglaridan foydalanish lozim.

5.10 Ishlab chiqarish xonalarining mikroiqlimi [7] talablariga muvofiq bo‘lishi kerak.

5.11 Ishlab chiqarish maydonchalari ГОСТ Р 12.3.047 ga muvofiq yong‘inga qarshi uskunalar bilan ta‘minlanishi kerak, ГОСТ 12.1.005 bo‘yicha umumiy almashuv oqib kelish-chiqarish ventilyatsiyasi, [10] bo‘yicha isitish va ventilyatsiya bilan jihozlangan bo‘lishi kerak. Ishlab chiqarish xonalari [11] va talablarga muvofiq bo‘lishi kerak.

5.12 Ishlab chiqaruvchi korxonaning ma‘muriy va maishiy binolari [8] talablariga javob berishi kerak.

5.13 Plitalar ishlab chiqarish jarayonida atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha ГОСТ 17.2.3.02 talablariga rioya qilinishi lozim.

5.14 ГОСТ 17.4.3.05 bo‘yicha oqova suvlariga talablar.

5.15 Ishlab chiqarish chiqindilarini yig‘ish, saqlash va yo‘q qilish [12] talablariga muvofiq amalga oshiriladi.

6 Qabul qilish qoidalari

6.1 Plitalar ishlab chiqaruvchi korxonaning texnik nazorat bo‘limi tomonidan ushbu standart va ГОСТ 13015 talablariga muvofiq qabul qilinishi kerak.

6.2 Plitalarni qabul qilish to‘p tomonidan amalga oshirilishi kerak. To‘p hajmi 100 ta plitagacha qabul qilinishi kerak. To‘p tarkibiga bir sutkada bir xil turdagi va bir xil sifatli materiallardan bir xil texnologiya bo‘yicha tayyorlangan bir xil markali plitalar kiritilishi kerak.

6.3 Kichik miqdordagi plitalarni tayyorlashda, ushbu standartning 6.2-bandi talablari bajarilishini ta’minlagan holda, bir necha sutka davomida, lekin bir haftadan ko‘p bo‘lmagan vaqt ichida tayyorlangan plitalarni to‘p tarkibiga kiritish kerak.

6.4 Beton plitalarning davriy sinovlari plitalarni ko‘plab ishlab chiqarishni boshlashdan oldin, ularga konstruktiv o‘zgartirishlar kiritilganda, tayyorlash texnologiyasi o‘zgarganda, qo‘llaniladigan materiallarning turi va sifati o‘zgarganda, seriyali ishlab chiqarishda kamida 6 oyda bir marta quyidagi ko‘rsatkichlar bo‘yicha o‘tkazilishi lozim:

- zichligi;
- siqilishga mustahkamligi;
- sovuqqa chidamliligi;
- suv shimuvchanligi;
- suv o‘tkazmasligi;
- ishqalanish.

6.5 Plitalar ishlab chiqarishda operatsion nazorat hajmi va tartibi ishlab chiqaruvchi korxonaning belgilangan tartibda tasdiqlangan texnologik hujjatlariga asosan amalga oshiriladi.

6.6 Armatura, o‘rnatish buyumlari va bog‘lovchi halqalarining qabul nazorati to‘pdan kamida uchta buyumda quyidagi ko‘rsatkichlar bo‘yicha o‘tkazilishi lozim:

payvandlangan armatura va o‘rnatma buyumlarining birikma mustahkamligi;

bog‘langan armatura buyumlarining bog‘lanish sifati;

shakl va o‘lchamlarning muvofiqligi.

STANDARTLAR INSTITUTI #9VJ4G4MBAD - 03.02.2026 "TURON-STANDART SERTIFIKAT" MCHJ

To‘p sifatida bitta plita uchun kerak bo‘lgan armatura va o‘rnatish buyumlari soni qabul qilinadi.

6.6 Zo‘riqtiriladigan armaturadagi zo‘riqtirilganlikni nazorat qilish har bir plitada kamida 4 ta zo‘riqtirilayotgan elementda o‘tkazilishi kerak.

6.8 O‘rnatilgan armatura bo‘yicha har bir plita uchun “Yashirin ishlar akti” rasmiylashtirilishi kerak.

6.9 Sterjenli zo‘riqtiriladigan armaturaning ulangan joylarini birlashtirib payvandlash ГОСТ 14098 bo‘yicha.

6.10 Armatura va o‘rnatiladigan buyumlar ГОСТ 14098 talablari bo‘yicha kontakt payvandlash usulida yoki O‘zMSt 561 bo‘yicha umumiy maqsadli sim yordamida bog‘lash usulida.

6.11 Plitalarning betonini quyidagi ko‘rsatkichlar bo‘yicha davriy sinovlari:

mustahkamlik;

zichlik;

suv o‘tmaslik;

sovuqqa chidamlilik

6.12 Har bir plitaning qabul-topshirish sinovlari quyidagi ko‘rsatkichlar bo‘yicha o‘tkazilishi lozim:

loyiha yoshidagi beton mustahkamligi;

uzatish mustahkamligi;

bo‘shatish mustahkamligi;

geometrik parametrlarning aniqligi;

beton yuzalarining sifati va tashqi ko‘rinishi;

beton himoya qatlamining qalinligi va armaturaning joylashuvi;

cho‘kishdagi yoriqlarining ochilish kengligi;

bog‘lovchi halqalarning mavjudligi va to‘g‘ri o‘rnatilishi;

armaturaning ko‘rinmasligi;

yog‘li va zangli dog‘larning yo‘qligi;

tamg‘alash yozuvlarining mavjudligi va to‘g‘ri qo‘yilishi;

montaj belgisining mavjudligi va to‘g‘ri qo‘yilishi.

6.13 Sinovlari plitalarni ommaviy ishlab chiqarish boshlanishidan oldin, konstruktsiyaviy o‘zgarishlar kiritilganda, ishlab chiqarish texnologiyasi o‘zgarganda, ishlatilayotgan materiallar turi va sifati o‘zgarganda, shuningdek seriyali ishlab chiqarishda har 6 oyda kamida bir marta o‘tkazilishi lozim.

Sinovdan oldin ushbu standart talablariga javob beruvchi va ishlab chiqaruvchi korxonaning texnik nazorat xizmati tomonidan qabul qilingan plitalar tanlab olinishi kerak.

6.14 Chuqurchalar, chig‘anoqlar, cho‘kindilar, siniqlar o‘lchamlari 5-jadvalda bo‘yicha.

6.15 Plitalarning mustahkamligi, qattiqligi va yoriqlarga chidamliligini sinash va baholash ГОСТ 8829 bo‘yicha, konstruktorlik hujjatlarida ko‘rsatilgan sinov sxemalariga muvofiq nazorat yuklamalari hajmida yuklash yo‘li bilan amalga oshirilishi lozim.

6.16 Har bir qabul qilingan plita ГОСТ 13015 ga muvofiq “Sifat hujjati” bilan birga bo‘lishi kerak.

“Sifat hujjati”ga bir xil markadagi, bir manzilga bir vaqtning o‘zida jo‘natilayotgan bir nechta qabul qilingan plitalar kiritilishi mumkin.

STANDARTLAR INSTITUTI #9VJ4G4MBAD - 03.02.2026 "TURON STANDART SERTIFIKAT" MCHJ

6.18 “Sifat hujjatida” quyidagilar ko‘rsatilishi lozim:

ishlab chiqaruvchi korxonaning to‘liq nomi, yuridik va jismoniy manzili, telefoni yoki uning savdo belgisi (agar mavjud bo‘lsa);

hujjat raqami va berilgan sanasi;

plita nomi va markasi, uning tartib raqami;

ishlab chiqarilgan sana (kun, oy, yil);

siqilishga mustahkamlik bo‘yicha beton sinfi;

haqiqiy bo‘shatish mustahkamligi, kgf/m³;

betonning o‘rtacha zichligi, kg/m³;

sovuqqa chidamlilik bo‘yicha beton markasi;

suv o‘tmaslik bo‘yicha beton markasi;

uzatish mustahkamligi, kgf/m³;

ushbu standartning belgilanishi;

TNB shtampi yoki plitalar sifatiga mas‘ul shaxsning imzosi.

6.19 Agar plitalar ishlab chiqarish buyurtmasida qo‘shimcha ko‘rsatkichlar belgilangan bo‘lsa, “Sifat hujjatida” ushbu ko‘rsatkichlar bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilishi lozim.

7 Nazorat usullari

7.1 Betonning uzatish mustahkamligi, loyihaviy yoshdagi mustahkamligi nazorat qilish va siqilishga mustahkamligi ГОСТ 18105 bo‘yicha, ishchi tarkibdagi beton qorishmasidan tayyorlangan nazorat namunalar seriyasi asosida ГОСТ 10180 bo‘yicha amalga oshirilishi lozim.

7.2 Plitalardagi betonning bo‘shatish (otpusknoy) mustahkamligini nazorat qilish ГОСТ 17624 bo‘yicha ultratovushli uskunalar bilan yoki ГОСТ 22690 va O‘z DSt ISO 1920-7 bo‘yicha mexanik uskunalar bilan buzilmas usulda, yoxud ushbu standartning 7.2-bandiga muvofiq nazorat namunalari asosida amalga oshirilishi lozim.

7.3 Beton plitalarni davriy sinovdan o‘tkazish:

- ГОСТ 10060 bo‘yicha sovuqqa chidamlilik;
- EN 12350-6 yoki ГОСТ 12730.1 bo‘yicha zichligi;
- ГОСТ 12730.3 bo‘yicha suv shimuvchanligi;
- ГОСТ 12730.5 bo‘yicha suv o‘tkazmaslik;
- ГОСТ 13087 bo‘yicha ishqalanish.

7.4 Armatura tortilish kuchini nazorat qilish ГОСТ 22362 bo‘yicha amalga oshirilishi lozim.

7.5 Armaturadagi kuchlar beton orqali qabul qilingandan so‘ng, plitaning egilishi (elastik ko‘tarilishi)ni nazorat qilish ГОСТ 26433.1 ga muvofiq va nivelirlar yordamida amalga oshirilishi lozim.

7.6 Sterjenli zo‘riqtiriladigan armaturaning ulangan joylarini birlashtirib payvandlash ГОСТ 14098

7.7 Armatura va o‘rnatiladigan buyumlar ГОСТ 14098 talablari bo‘yicha kontakt payvandlash usulida yoki O‘zMSt 561 bo‘yicha umumiy maqsadli sim yordamida bog‘lash usulida tayyorlanishi kerak.

7.8 Plitalarning geometrik parametrlarini, sirtlar profilining to‘g‘riligini, zo‘riqtirilgan armatura cho‘zilish miqdorini, o‘rnatiladigan detallar va ilgak halqalarining joylashuvini, sifati va

STANDARTLAR INSTITUTI #9VJ4G4MBAD - 03.02.2026 "TURON STANDART SERTIFIKAT" MCHJ

o‘rnatiladigan detallarini nazorat qilish ГОСТ 26433.1 bo‘yicha o‘lchov ishlarini bajarish qoidalariga muvofiq amalga oshirilishi lozim. O‘lchov vositalari sifatida quyidagilar qo‘llaniladi:

po‘lat chizgichlar – texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi me‘yoriy hujjatlar bo‘yicha,

chuqurlik o‘lchagichlar (shtangenglyubinomer) – ГОСТ 162 bo‘yicha,

shtangensirkul – ГОСТ 166 bo‘yicha,

metall ruletkalar – ГОСТ 7502 bo‘yicha.

7.9 Betonning himoya qatlami qalinligini va armatura joylashuvini nazorat qilish ГОСТ 22904 talablariga muvofiq amalga oshirilishi lozim.

7.10 Yorilishlarning ochilish kengligini nazorat qilish ГОСТ 26433.1 ga muvofiq, aniqligi 0,05 mm bo‘lgan mikroskop yordamida amalga oshirilishi lozim.

7.11 Tabiiy radionuklidlarning solishtirma samarali faolligi (A_{sam}) nazorati sanitariya-epidemiologik xulosalar yoki xom ashyo materiallariga berilgan moslik sertifikati ma‘lumotlariga asoslanib, ГОСТ 30108 va [4] talablariga muvofiq amalga oshirilishi lozim.

7.12 Chuqurchalar, chig‘anoqlar, cho‘kindilar, siniqlar o‘lchamlari 5-jadvalda bo‘yicha.

7.13 Barcha o‘lchash va nazorat vositalari belgilangan tartibda tekshirilgan yoki metrologik attestatsiyadan o‘tkazilgan bo‘lishi kerak

8 Transportda tashish va saqlash

8.1 Plitalarni tashish quyidagi tartibda amalga oshirilishi lozim:

avtomobil transportida — yirik o‘lchamli yuklarni tashish qoidalariga muvofiq;

maxsus jihozlangan avtomobillarda (turniketlarda) — balandlik bo‘yicha ikki qator qilib, pastki plita ostiga tagliklar va plitalar orasiga ajratkichlar o‘rnatilgan holda;

uzun o‘lchamli avtomobillarda — balandlik bo‘yicha bir qator qilib, plita ostiga tagliklar o‘rnatilgan holda.

8.2 Plitalarning sifatini avtomobil transportida tashishda saqlab qolish uchun quyidagi shartlarga rioya qilinishi lozim:

Plitaning konsolli chiqish (osilishi) o‘lchami konstruksion hujjatlarda ko‘rsatilgan miqdordan kam bo‘lmasligi kerak;

Transport harakati doimiy tezlikda, keskin harakatlarsiz amalga oshirilishi lozim;

asfalt-beton qoplamali yo‘llarda — soatiga 40 km gacha tezlikda;

shag‘al-qum qoplamali yo‘llarda — soatiga 10 km gacha tezlikda;

temir yo‘l yo‘laklaridan o‘tishda — soatiga 10 km gacha tezlikda.

8.3 Plitalar ushbu standart va ГОСТ 13015 talablari asosida markalari bo‘yicha saralangan holda gorizontal holatda saqlanishi lozim.

8.4 Plitalarni saqlashda ularni shtabelga joylashtirish soni quyidagilardan oshmasligi lozim:

Uzunligi 12 m, 15 m, 18 m bo‘lgan plitalar — 3 ta;

Uzunligi 6 m, 9 m bo‘lgan plitalar — 4 ta.

8.5 Plitalarni saqlash va tashish jarayonida prokladkalar va tagliklar konstruktiv hujjatlarda ko‘rsatilgan tayanch o‘qlari bo‘yicha, plita kengligi bo‘ylab to‘liq joylashtirilishi lozim.

Tagliklarning qalinligi kamida 50 mm bo‘lishi kerak.

Plitalar orasidagi prokladkalar qalinligi esa stropovka ilgagini balandligidan 20 mm ko‘p bo‘lishi lozim.

STANDARTLAR INSTITUTI #9VJ4G4MBAD - 03.02.2026 "TURON STANDART SERTIFIKAT" MCHJ

8.6 Plitalarni ko‘tarish va ko‘chirish ishlarini quyidagicha amalga oshirish lozim:

— Uzunligi 9 dan 18 metrgacha bo‘lgan PN va P turidagi plitalar — 2 ta ilgak orqali;

— Uzunligi 6 metr bo‘lgan PN va P turidagi plitalar — 4 ta ilgak orqali.

8.7 Ortish-tushirish jarayonlarida plitalarni ko‘tarish va siljitish betonni sinishini oldini olish, plitalarni deformatsiyalanishdan saqlash va xavfsizlik texnikasini ta‘minlash uchun siltashlarsiz amalga oshirilishi kerak.

8.8 Plitalarni tushirishni tashlab yuborish yo‘li bilan, shuningdek, bitta ilgakdan sudrab ko‘chirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

9 Foydalanish bo‘yicha ko‘rsatmalar

9.1 Yangi transport inshootlarini qurishda va mavjudlarini rekonstruksiya qilishda, plitalar qo‘llangan hollarda, [9] talablari bajarilishi shart.

9.2 [9] bilan qamrab olinmagan ishlar, tegishli tartibda tasdiqlangan va maxsus transport inshootiga oid “Ishlarni bajarish loyihasi” ko‘rsatmalariga muvofiq amalga oshirilishi lozim.

9.3 Transport inshootlari muntazam ravishda (rejalashtirilgan tartibda) [9] talablari asosida tekshiruvdan o‘tkazilishi lozim, tekshiruv chastotasi esa transport inshootlarini joriy ta‘mirlash bo‘yicha rahbarlik qiluvchi hujjatlarda belgilangan tartibda belgilanadi.

10 Ishlab chiqaruvchi kafolatlari

10.1 Ishlab chiqaruvchi, iste‘molchi tomonidan transport, saqlash, o‘rnatish va ekspluatatsiya shartlariga rioya qilinsa, plitalarning ushbu standart talablariga muvofiq bo‘lishini kafolatlaydi.

10.2 Plitalarning ishonchliligi loyihalash, ishlab chiqarish, o‘rnatish va ekspluatatsiya jarayonlaridagi talablar majmui bilan ta‘minlanadi.

STANDARTLAR INSTITUTI #9VJ4G4MBAD - 03.02.2026 "TURON STANDART SERTIFIKAT" MCHJ

A ilova

(ma‘lumot uchun)

Plitalar tur o‘lchamlar qatori uchun asosiy ko‘rsatkichlar

A.1-jadval

Plita ruri	Plitaning markasi	Beton hajmi, m^3	Betonninng og‘irligi, t	Armatura po‘latining sarfi, kg		Sement sarfi PS 500 kg/m^3
				Zoriqtrilgan	zoriqtirilmagan	
P	P 6-A600	1,25	3,1	84,0	95,8	500
PN	PN 9.99.48-K 7	2,50	6,30	92,3	145,5	
	PN 18.99.78-A 600.1	7,0	17,50	648,0	268,1	

STANDARTLAR INSTITUTI #9VJ4G4MBAD - 03.02.2026 "TURON STANDART SERTIFIKAT" MCHJ

B ilova

(ma‘lumot uchun)

Loyiha hujjatlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar

B.1 jadval

Konstruktiv hujjatlar seriyasi 3.503.1-12 UZ	Avtomobil va shahar yo‘llari uchun ko‘priklar va o‘tkazgichlar uchun oldindan tortilgan temir-betonidan tayyorlangan unifikatsiyalangan yig‘ma o‘tkazish konstruktsiyalari. 6-son “I” nashr: Uzunligi 6 dan 18 metrgacha bo‘lgan teshikli plitalardan yasalgan o‘tkazish konstruktsiyalari, A 600 va A 800 sinfli chiviqli armatura bilan mustahkamlangan; 16-son “I” nashrga qo‘shimcha: Uzunligi 6 dan 18 metrgacha bo‘lgan teshikli plitalardan yasalgan o‘tkazish konstruktsiyalari, K 7 to‘plamli arqonlar bilan mustahkamlangan.
Konstruktiv hujjatlar seriyasi 3.503.1-12	Avtomobil va shahar yo‘llari uchun ko‘priklar hamda o‘tkazgichlar uchun oldindan tortilgan temir-betonidan yasalgan unifikatsiyalangan yig‘ma o‘tkazish konstruktsiyalari — 16-son nashr “Uzunligi 6 dan 18 metrgacha bo‘lgan, A 600 va A 800 sinfli chiviqli armatura bilan mustahkamlangan teshikli plitalardan yasalgan o‘tkazish konstruktsiyalari”; 16-son nashrga qo‘shimcha “Uzunligi 12 dan 18 metrgacha bo‘lgan o‘tkazish konstruktsiyalari uchun K 7 arqon va armatura bilan mustahkamlangan teshikli plitalar”.

STANDARTLAR INSTITUTI #9VJ4G4MBAD - 03.02.2026 "TURON STANDART SERTIFIKAT" MCHJ

Bibliografiya

[1]	SHNQ 2.01.01-22	Loyihalash uchun iqlimiy va fizikaviy-geologik ma‘lumotlar
[2]	SHNQ 2.05.03-22	Ko‘priklar va quvurlar
[3]	SHNQ 5.01.23-08	Yig‘ma va monolit beton, temir-beton buyumlar va konstruksiyalar betonlarini tayyorlash uchun sement sarfining namunaviy me’yorlari
[4]	SanQvan 0193-06	Radiatsiya xavfsizligi normalari (rxn 2006) va radiatsiya xavfsizligini ta‘minlashning asosiy sanitar qoidalari (rxtasq 2006)
[5]	SanQvan 0325-16	Ish joylarida ruxsat etilgan shovqin darajasi bo‘yicha sanitariya normalari
[6]	SanQvan 0326-16	Ish joylaridagi umumiy va lokal tebranishlarning sanitariya normalari
[7]	SanQvan 0324-16	Ishlab chiqarish korxonalari binolari mikroiqlimining sanitar — gigiyenik me‘yorlari
[8]	SHNQ 2.09.02-23	Korxonalarning ishlab chiqarish hamda ma’muriy-maishiy bino va inshootlari. Loyihalash talablari
[9]	SHNQ 3.06.07-23	Ko‘priklar va quvurlar. Tekshirish, sinash va diagnostika qilishi qoidalari
[10]	SHNQ 2.04.05-22	Isitish, ventilyatsiya va konditsiyalash
[11]	SanQvan 0294-11	Gigiyenik me‘yorlar. Ish joylari havosidagi zararli moddalar ruxsat etilgan miqdorining gigiyena normativlari
[12]	SanQvan 0300-11	O‘zbekiston sharoitida ishlab chiqarish chiqindilarini yig‘ish, inventarizatsiya qilish, tasniflash, zararsizlantirish, saqlash, va utilizatsiya qilishni tashkil etishning sanitariya qoidalari va normalari
[13]	UzTR.319-004	Metallurgiya mahsulotlari xavfsizligi to‘g‘risidagi umumiy texnik reglament

STANDARTLAR INSTITUTI #9VJ4G4MBAD - 03.02.2026 "TURON STANDART SERTIFIKAT" MCHJ

Bibliografik ma’lumotlar

SMT 93.040

Muhim so‘zlar: Avtoyo‘l ko‘priklar uchun mo‘ljallangan oldindan tortilgan teshikli temir-beton plitalar, transport inshootlarini qurishda ishlatiladi.

STANDARTLAR INSTITUTI #9VJ4G4MBAD - 03.02.2026 "TURON STANDART SERTIFIKAT" MCHJ